

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024- yilning 2-choragida amalga oshirilgan ishlar

Masofaviy tarzda, video aloqa orqali o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i U. Djumanazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Yig'ilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 21- dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son farmoni doirasida joriy yilning 4- mart kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son qaroriga alohida to'xtalib o'tildi. Takidlandiki, yangi qarorda:

- Statistika organlarining qonuniy faoliyatiga, shu jumladan, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, statistika ma'lumotlarini tayyorlash va ularni e'lon qilish jarayonlariga har qanday aralashishga yo'l qo'yilmasligi;

- Boshqarma hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil va bevosita Statistika agentligiga bo'ysunishi;

- Buxoro viloyatining 2024-2025-yillarda erishishi lozim maqsadli ko'rsatkichlari;

- Boshqarma hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari tarkibi va nizomi tasdiqlanganligi e'tirof etildi.

Shuningdek, Buxoro viloyati statistika organlarida 2024- yil 2- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

Bundan tashqari, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari nirivojlantirish bo'yicha maqsadli kompleks dasturlar monitoring uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistik ma'lumotlar tayyorlanib, har oyda Statistika agentligi va viloyat hokimligiga taqdim etib borildi.

Jumladan, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2024- yilning 2- choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda 25 663,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,3 foizga o'sdi.

Shuningdek, viloyat korxonalaridan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 16,7 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 106,8 foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 15,1 trln. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,6 foizga yetdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2023- yilning mos davriga nisbatan (145,4 foiz) o'sish kuzatildi. Viloyatda jami 5,9 trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 111,1 foizga teng bo'ldi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 40 440 tani tashkil etib, ulardan 29 366 tasi yoki 72,6 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

2024- yilning yanvar mart oylarida viloyatda 2 690 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 520 taga kam.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10,5 trln. so'mni, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,0 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo Tovar aylanmasi 8 496,4 mln. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,6 foizga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 648,2 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 137,7 mln. AQSH dollarini va import 510,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Yig'ilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2024- yil 2- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.